Sharipova Nargiza

Registon ansambli gid tarjimoni

O’ZBEKISTONDA GANCHKORLIK VA O’YMAKORLIK SAN’ATINING RIVOJLANISHI HAMDA O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI SAMARQAND MAKTABI MISOLIDA

Annotasiya: Ushbu maqolada ganchkorlik va o’ymakorlik san’atining mamlakatimizda rivojlanish tarixi va Respublikamizning turli hududlariga oid turlarining shakllanishi hamda bu borada turli hududlarning o‘ziga xosliklari hamda ularning yaralishiga hissa qo‘shgan ustalar haqida fikr boradi.

Kalit so’zlar: Ganchkorlik, naqshlar, san’at, badiiylik, obidalar, bezatish, maqbara, ganch, o‘ymakorlik, o‘yma ganchlar, me’morchilik, geometrik, naqshlar.

Ganchkorlik va o’ymakorlik qadimiy san’at turlaridan bo’lib, Sharq mamlakatlari, xususan, O‘rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda taraqqiy etgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyoda yaratilgan asarlar badiiyligi, kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Ganch naqshlar O'zbekistondagi ko‘pgina obidalarga ko‘rkamlik, go‘zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Bu ikki san’at turi O‘zbekiston me’morchilik-bezak san’atining asosini tashkil etib kelgan. XX asrga kelib Xiva, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo‘qon kabi shaharlari ularning asosiy markazlariga aylangan. Ganchkorlik va o’ymakorlik san’ati xalq amaliy bezak san’atining boshqa turlariga qaraganda, me’morchilik san’ati bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki ganchkorlik azaldan saroy, masjid va madrasa binolari hamda badavlat shaharliklarning uy-joylarini bezab turgan. Dastlab qurilishlarda mahalliy maktablarga xos an’analar bilan bog‘lanish kuchli

bo‘lgan. Qadimgi ganch o’ymakorligi hajmiy bo’lib, turfa xil tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko’pincha odamlar, hayvonlar, qushlar ta’sviri ishlatilgan.

Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Varaxshadan VII-VIII asrlarga oid ganch o‘ymakorligi namunalari topilgan. Ularda qushlar, hayvonlar, baliqlar, o‘simliksimon va geometrik shakllar tasvirlangan. X-XI asrlarda naqqoshlik, yog‘och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo‘ldi.

Vaqtlar o’tishi bilan naqqoshlik, yog’och va ganch o’ymakorligi yanada taraqqiy etdi. Murakkab tasvirlarni aks ettiradigan naqshlar paydo bo’ldi. Ganch o’ymakorligi ishlari uyning ichki namgarchilik tegmaydigan tashqi qismida ham qo’llanila boshlandi. XX asr boshlaridagi o’yma releyfi judda mayin bo’lgan uslub texnikasi paydo bo’ldi. Rangli ganchlar, bo’yoqlar, naqsh va tasvirlar qo’llanila boshlandi.

Ayni paytda O’zbekistonda o’ziga xos ganchkorlik maktablari vujudga kela boshladi. Bunga yaqqol misol Buxoro maktabi ganchkorligining texnik jarayoni birmuncha murakkab, ishlovlarning noyob uslublari va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Samarqand ustalarining ishlash uslublari Buxoro ganchkorligiga yaqin bo‘lib, murakkab ganchning stalaktit uslubi orqali devorlar yuqori burchaklarini o‘yma naqshli panno bezatilishi bilan ajraladi. Taqqoslash uchun: Samarqand ganchkorlik va o’ymakorlik maktabining yana bir o’ziga xosligi Toshkent maktabida keng tarqalgan o‘simlik kompozisiyalari ko’p uchramaydi. Bu kabi kompozisiyalar Farg‘onalik ustalarning ishlariga yaqin bo‘lib, ko‘pincha «o‘simlik zanjiri» turkumidagi naqshlarni tashkil etadi.

Qo‘qon va Xorazm ganchkor ustalarining ishlari esa murakkab orasta qiyofali geometrik naqshlarga boy. Masalan, Xorazm me’morchiligida geometrik naqshlarga keng o‘rin berilgan bo‘lib, ular boshqa viloyatlarga qaraganda o‘ziga xosligi bilan

ajralib turadi. Ayniqsa, o‘simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanmaligi, dinamikligi bilan farq qiladi.Islimiy naqshlar ko‘pincha yaxlit-yaxlit turunj, madohil, qalampir, bodomga o‘xshash tanob shakllarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ba’zi hollarda turunj, madohil tanoblari o‘rniga yulduzsimon girihlar ham ishlatiladi. Islomiy naqshlarda novda juda ko‘p ishlatilib, marg‘ula, barg, uch barg, shukufta, oygul, no‘xot gul, kurtak va g‘unchalar ko‘p qo‘llaniladi. Xiva ganchkorligidagi eng xarakterli tomonlardan biri naqshlarning erkin va harakatchanligi, jo‘shqinligidir. Bu maktab ustalari naqshlarni ko‘p hollarda ko‘k va yashil rang bilan bezaganlar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Samarqand ustalarining ishlash uslublari Buxoro ganchkorligiga yaqin bo’lib, bunda o‘yma ganchlarning yirikligi, mayinligi, jozibadorligi alohida ahamiyatga ega. Samarqand ganchkorlik maktabi namoyandalari Usta Anvar Quliyev, Usta Tursunboy Ismoilov, Sharnsiddin G ‘ofurov, Quli Jalilov va qator buyuk ustalarni sanab o‘tish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda ganchkorlik va o’ymakorlik san’atining tarixi va uning rivoji uzoq o’tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib, takomillashib kelayotgan san’at turlaridan biri bo‘lib, zamonaviy binolarning qurilishi va bezatilishida ham ulardan keng foydalanish uchun bu borada chuqur izlanishlar olib borish zarurligini anglatadi.

WORDLY KNOWLEDGE